

**YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA
TARBIYALASHDA JALOLIDDIN RUMIYNING “MASNAVIY
MA’NAVIY” ASARI HAQIDA**

UNIVERSITY OF MANAGEMENT AND FUTURE TECHNOLOGIES

“Ijtimoiy fanlar” kafedrası katta o’qituvchisi

N.B. Safarova

E-mail:

Telefon: +998914139789

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy ma’naviy” asarining qisqacha talqini, xamda uning talqinida falsafiy hikmatnavislik an’anasining davomiyligi yoritilgan.

Kalit so’zlar: “Masnaviy ma’naviy”, hikmatnavislik, fors, falsafiy, bayt, taassurotini, epik, masnaviy, arab, bashariyat .

Аннотация. В данной статье освещена краткая интерпретация произведения Джалалуддина Руми «Маснавий манавий», а также продолжение традиции философской мудрости в его интерпретации.

Ключевые слова: «Маснавий манавий», мудрость, персидский, философский, стих, впечатление, эпос, маснавий, арабский, человечность.

Yurtimiz mustaqillikka erishganidan keyin, har sohada bo’lgani singari adabiyotshunoslikda ham, yangi tarixiy sharoitda ma’naviy merosimiz durdonalarini chuqurroq o’rganish imkoniyati kuchaydi. Zero, birinchi prizidentimiz aytganlaridek: “Xalqning ma’naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o’ziga xosligi qayta tiklanayotganligi – jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo’lidan muvaffaqiyatli ravishda olg’a

siljitishda hal qiluvchi ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir"[1]. Darhaqiqat adabiyot, ma'naviyat, insonni to'g'ri yo'lga boshlaydi. Qalbiga yaxshilik urug'larini ekadi, shunday ekan, O'rta asr musulmon Sharqining muazzam siymolaridan biri Jaloliddin Rumi ham ana shunday zotlardan hisoblanadi. Mavlono Jaloliddin Rumi jahon mumtoz adabiyotining eng muhim namoyondalaridan, bashariyat shoiri deb shuhrat qozongan zabardast allomadir. Mana qariyb sakkiz asrdan buyon mavlononing nomi tillardan tushmaydi, rumiyona satrlar ellardan ellarga o'tib, jahon kezadi. Alisher Navoiy ul zotni ustozlar ustози deb atagan, Abdurahmon Jomiy esa payg'ambar emas ,lekin payg'ambarlik kitobi bor, deb ulug'lagan. Buyuk nemis faylasufi Gegel, men o'zimning dialektika haqidagi ta'limotimni Jaloliddin Rumiya suyanib, yaratdim, deb e'tirof etgan.

Mavlono haqida Gyote, Lev Tolstoy kabi buyuklarning dil so'zlari ham tarix sahifalarida yarqirab turibdi. Jaloliddin Rumi ijodining eng yorqin durdonasi uning olti kitobdan iborat "Masnaviy Ma'naviy" asaridir. "Masnaviyi sharif", "Ma'naviyat dengizi", "Tasavvuf qomusi", deb dong taratgan bu asarni chin ma'noda "Dunyoning kitobi" deyish mumkin. Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, u - haq madhi, haqiqat taronasi, insonni komil falsafasidir. Mavlono Jaloliddin Rumiyni "Masnaviy Ma'naviy" ushbu asari 26840 baytdan iborat, Qur'onning 70 foiz ma'nosini o'zida jamlagan va asar 690 ta hadisga sharh, 270 ta turli mavzudagi hikoyalardan iborat. Arab-fors epik dostonchilik usulida bo'lgan, masnaviy asar o'zida boshqa uslublarni ham mujassam qilgan [2]. Masnaviyda Qur'on oyatlaridan 760 marta iqtibos olingan, 690 ta hadisdan foydalanilgan.

Masnaviydan parcha:

Shab nabud nuru nadidy rangho,

Pas, ba ziddi nur paydo shud turo.

Kunduz oftob charog'on ekan, sen uning taassurotini tark etolmaysan. So'ng nurning aksi bo'lgan kecha uning qimmatini anglaysan. Xullas, nurning ziddi bo'lgan kecha tufayligina nur yorug'lik ma'nosini faxmlading [3].

Rumiy o'zining bu satri bilan o'zining falsafiy dunyoqarashini ham yaqqol namoyon qilib ketgan. Bu satrning chuqur ma'nosi shuni anglatadiki, yorug'likni anglash uchun unga zid bo'lgan kechani talqin qilish kerak. "Masnaviy" Qur'oni karimning o'ziga xos she'riy tafsiri va hadisi sharflarning sharhidan, talqinidan iboratdir.

Rumiy ijodida inson erki, ma'naviy komillik, o'zlikni anglash, tavakkul, Olloh ishq, ma'rifat, shariat, tariqat, shukr qilib yashash, nafsni yengish, qanoat, haqiqat, adolat, xayr-u saxovat kabi o'ndan ortiq g'oyalar yetakchilik qiladi. Mazkur tushunchalarni ifodalashda go'zal badiiy ifodalardan foydalanadi. Masalan, Rumiyning asarlarida Haq ta'rifi juda ko'p keltirilgan. Ollohning buyukligi, uning mehribonligi va barchaga tengligi go'zal misralarda tasvirlanadi:

Haq o'zi jonlarga deb nur yog'durur,

Baxtiyorlar unga doman to'ldirur.

Qo'shimcha qilib aytadigan bo'lsak, Jaloliddin Rumiy buyuk shoir, alloma, tasavvuf vakilidir. Adabiyotshunos olim Jamol Kamol ta'biri bilan aytganda butun "bashariyat shoiridir". Butun millat, bashariyat shoiri bo'lmish Rumiy ijodini o'rganishimiz, ilmiy tadqiqotlar olib borishimiz hamda ilm va omma ahliga tadqiq qilishimiz biz adabiyotshunoslar oldidagi dolzarb vazifadir. Rumiy she'riyati, asosan, ilohiy ishq bilan bog'langan. U o'zining barcha asarlarida yeru ko'kning sohibi bo'lmish Alloh va uning zamindagi xalifasi hazrati insonni ulug'laydi. Rumiyning mashhur asari "Masnaviy ma'naviy"dir. Asarda Qur'oni karim va Hadisi sharif ma'nolarini

o‘ziga singdirgan, inson hayoti bilan bog‘liq barcha masalalar badiiy yo‘sinda bayon etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jaloliddin Rumiy "Masnaviy ma'naviy"asari. Asqar Mahkam
2. Каримов И А. Ўзбекисон иқсодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида, Т.: “ Ўзбекистон “
3. Абу Наср Фаробий.Фозил одамлар шахри.-Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти,1993